

**5- ONA TILI DARSЛИGIDA MAVJUD TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI  
RIVOJLANTIRUVCHI BA'ZI TOPSHIRIQLAR TAHLILI**

**Avazova Farangiz Ixtiyor qizi**

Samarqand davlat universiteti

1- bosqich doktoranti.

[farangizavazova97@gmail.com](mailto:farangizavazova97@gmail.com)

Ilmiy rahbar: p.f.d. **G‘.H. Hamroyev**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ona tili darsliklariga (xususan 5-6- sinf) kiritilgan tinglab tushunishga doir o‘quv topshiriqlaridagi ba’zi muammolari va yechimlar haqida so‘z yuritiladi. Topshiriqlarning mavzuga bog‘liqlik darajasi va yoshga nisbatan to‘g‘ri tuzilganligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** topshiriq, ta’lim mazmuni, mashq, o‘qituvchi, metod, 5- sinf ona tili darslik, tinglab tushunish.

**Annotation:** This thesis discusses some of the problems and solutions to the teaching tasks related to listening and understanding included in the language textbooks (especially grades 5-6). Discussions are made about the level of dependence on the subject and the correct structure of the assignments relative to age.

**Keywords:** assignment, teaching content, exercise, teacher, method, 5th grade language textbook, listening and understanding

Jamiyatning rivojlanib borishi fan va texnika, talim-tarbiyaning rivojlanib tarqqiy topishi bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlabki ta’lim va tarbiya jarayonlarining quyi bosqichlarida o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berish jarayonlari va topshiriq, darsliklari juda sodda talablar va jarayonlar shaklida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi fan-texnika rivojlangan zamonga kelib ta’lim jarayoni murakkablashib bormoqda, chunki bugungi kun o‘quvchilarini qiziqtirish va ularga samarali ta’lim jarayonini tashkil etish asosiy muammolardan biri hisoblanmoqda. Shuning uchun ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan hamnafas rivojlanib borayotgan o‘qitish tizimi jarayonlari ko‘لامи ham kengayib bormoqda. Maktab darsliklarda esa tabiiy ravishda yuqoridagi holat o‘z aksini topmoqda. Bu holatdan ona tili darsliklari ham holi emas. Dastlabki ona tili darsliklarimizga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ko‘proq grammatika va o‘quvchining yozma savodxonligiga e’tibor qaratilganini ko‘rishiniz mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy o‘qitish usullari kirib kela boshlagach darsliklarimiz mazmuni ham yangilanib bordi. Topshiriq va mashqlarda ham katta o‘zgarishlar kirib keldi. Xususan, topshiriq va mashqlar ko‘لامи kengaydi. Bugungi kun darsliklari aynan ta’lim mazmunidan kelib chiqib o‘quvchini hayotning barcha sohasida erkin fikrlaydigan, har qanday vaziyatda yo‘l topadigan va o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda ravon ifoda etoladigan nutqiy rivojlangan insonni voyaga yetkazish hisoblanadi. Ona tili darsliklari ham xuddi shu mazmunga ko‘ra yangicha tus oldi. O‘quvchida o‘zgalarning fikrini hurmat qilish va tinglashga, bevosita tinglah orqali to‘g‘ri fikr berishga yordam beruvchi tinglab tushunish ko‘nikmasiga ham alohida e’tibor berilgan. 5- sinf ona tili darsligi uchun hammalliflikda 2020-yil ishlab chiqilgan o‘qituvchi kitobi ya’ni metodik qo‘llanmada tinglab tushunish kompetensiyasiga shunday tushuntirish berib ketilgan: “Ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali o‘quvchi diqqatini uzoq vaqt ushslash malakasi, o‘quvchilarning

og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, barqaror atamalar, kasbhunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim.”<sup>1</sup> Bu fikrlar orqali tinglab tushunish qobiliyati ham muhim kompetensiyalardab biri ekanligi e’tirof etilgan va o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilish uchun mashq va topshiriqlar berib ketilgan. Yuqorida ta’rifdan kelib chiqib 5- sinf ona tili darsidan aynan quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutilgan:

**Tinglab tushunish:**

- monologik, dialogik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi;
- tinglangan matn (audio matn, hikoya matni)ni tushunadi;
- ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqeа-hodisalarni tushunadi;
- darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;
- turli sodda matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajratadi, umumlashtirib xulosalaydi;
- audiomaterialni tinglab, og‘zaki aytib beradi va matn ko‘rinishida yozib beradi;

Darslikda berilgan topshiriqlardan ushbu natija kutilmoqda, ammo topshiriqlarning berilishi talab darajasida emasligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan 5- sinf ona tili darsligining 2020- yilgi nashridan boshlab tinglab tushunish topshiriqlari berilgan, biroq berilgan topshiriqlarning audio podkastlari yo‘qligi tinglab tushunish topshiriqlari to‘laqonli shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishdagi topshiriqlarning barchasi matn shaklida berilgan. Darslikda matn shaklida, ammo tinglang degan jami 19 ta tinglab tushunishga doir topshiriqlar bor. Topshiriqning shartida esa tinglang tarzida shart qo‘ylgan. Tinglash uchun hech qanday audio podkast berilmagan. Matnni o‘quvchi bevosita o‘zi o‘qishi uchun sharoit yaratib berilgan. Bunday topshiriq asosan o‘qib tushunish kompetensiyasiga mos keladi. Tinglab tushunish topshiriq‘i uchun aynan audio berilsa va matn havola sifatida kitobning so‘ngi sahifalarida keltirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, darslikning 14-sahifasida tinglab tushunishga doir topshiriq quyidagicha berilgan:

**Topshiriq. Matnni tiklang. Berilgan hikoyatdagi asosiy fikrni to‘g‘ri talaffuz meyorlariga amal qilgan holda so‘zlab bering.**

Bir donishmanddan shogirdlari:

- Nima qilak, tinch va rohatda umr kechiramiz?- deb so‘radilar.

Donishmand:

<sup>1</sup> Umumiyo‘rtta ta’lim maktabalarinig 5-sinf uchun ona tilidan o‘qituvchi kitobi yangi nashr. Toshkent. 2020

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS  
AND THEIR SOLUTIONS  
VOLUME 5, ISSUE 1, 2024**

---

- Hech qayerda hech kimga biror so‘z so‘zlamang, sukut eting, - deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

- Axir, doim sukut etib yuraveramizmi? Boshqacha yo‘1

Donishmand maslahat berdi:

- Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchining dilini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehr-u vafo,

Nomunosib so‘zlasang, yetkay jafo.

Ha, til bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham, boshga balo. Shuning uchun donishmandlar so‘zni doriga o‘xshatib: “Ortiqchasi zarar keltiradi”, deydilar. (“Qisqa hikoyalar”dan)<sup>2</sup>

Ushbu topshiriq matn ko‘rinishida va tinglash uchun mo‘ljallangan audio varianti ham biror joyda berilmagan. O‘quvchilar esa tayyor matn bilan birdan tanishadilar va o‘qituvchi o‘zi ko‘zlagan va yuqorida tinglab tushunish uchun berilgan topshiriqlardan qayd etilgan natijalariga to‘liq erishib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, o‘qituvchi yoki biror nutqi ravon o‘quvchi tomonidan ushbu matnni o‘qib eshittirish mumkin, ammo audio vositalar, podkastlar bilan ishlansa maqsadga ko‘zlangan natijaga erishilgan bo‘lar edi. 5- sinf ona tili darsligiga kiritilgan topshiriqlarning barchasi xuddi shu tarzda shakllanirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo toqshiriq didaktik- tarbiyaviy jihatdan va o‘quvchining yoshini hisobga olgan holatda juda yaxshi matn tanlanganligini e’tirof etishimiz mumkin. Yuqoridagi topshiriq ona tili darsligining dastlabki topshiriqlaridan biri edi. Endi oxirgi sahifalar va mavzulardagi topshiriqqha e’tiborimizni qaratsak. Kitobning 118- sahifasida “76- dars. Matn va lug‘at ustida ishslash” mavzusidagi topshiriq **“Masalni tinglang”** shaklida keltirilgan.

Yomg‘irli kunda raqsga tushishni yaxshi ko‘radigan yosh, jajji bir tovus bor edi. U bog‘da gullarga mahliyo bo‘lib, qo‘shiqlar aytardi. Nima qilsa ham unga qo‘pol tovushi o‘z kamchiliklarini eslataverardi. Tovus yaqin atrofda sayrayotgan bulbulning yoqimli, mayin xonish (sayrash)ini eshitar va har safar uning ko‘zлari alamdan yoshga to‘ldi.

U nima uchun bunday ahvolga tushayotganiga hayron bo‘la boshladi. Shu chog‘ qo‘liga bir bog‘ o‘t bilan bog‘ egasi paydo bo‘ldi va tovusga murojaat qildi:

- Nega xafasan, ko‘nglingni chog‘ qilish uchun mana bu giyohlarni senga hadya qilaymi?

- Bulbulning shunday chiroyli ovozi bor. Sayrashda men undan o‘ta olmayman. Nima uchun u menda yo‘q? - dedi tovus.

- Ha, bulbulning shirali, xush ovozi bor. Lekin sen ham chiroyli va yorqin patlar bilansiyangansan! Hammasi buni qanday qabul qilishingda va undan qanday foydalanishingdadir.

---

<sup>2</sup> Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh va b. Ona tili umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik. Toshkent: 2020

Ovus o‘zini boshqa qushlarga qiyoslay boshladи. O‘zidagi ne’matning noyobligini tushunib yetdi. (“Qisqa hikoyalar”dan)

Ushbu topshiriq ham “tinglang” deb berilgan ammo matn shaklida darslikka kiritilgan. Topshiriq audio shaklda berilganda edi, o‘quvchilar bu topshiriqni tinglab, tinglash orqali matn ichidagi shakldosh va ma’nodosh so‘zlarni topishga harakat qilsalar topshiriq yana ham o‘quvchilar uchun qiziqarli va ularning diqqatini jamlashni rivojlantiruvchi bo‘lib xizmatb qilar edi. Yuqoridaq ikki topshiriqqa e’tibor beradigan bo‘lsak ular mazmuniy jihatdan har xil bo‘lgani bilan shaklan bir xilligi ko‘zga uyaqqol tashlanadi. Kitobdagи deyarli barcha topshiriqlari shu shaklda ekanligini qayd etishimiz mumkin.

Asta sekin darsliklarimiz rivojlangan davlatlar darsliklariga o‘xshab ishlab chiqilmoqda, ammo kamchiliklar hali hamon mavjud. Ona tili darsligini ishlab chiqishda har bir mavzu nutqiy kompetensiyaning barcha elementlari bilan boyitilishi kerak. Aynan o‘qitilishi jihatidan rivojlangan ingliz tili darsliklariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, darsliklarning barchasida va darslikka kiritilgan barcha mavzuda nutqiy kompetensiyaning barcha turi har bir mavzuda uchraydi. Topshiriqlar shakli ham turlicha ekanligini ko‘ramiz. 5- sinf ona tili darsligida esa barcha topshiriqlar shakli bir xil, bu holat o‘quvchida zerikish hosil qiladi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib keladi. Har bir tinglab tushunish kompetensiyasi uchun sifatli audiolar ishlab chiqish va ularni topshiriq ostidan yoki topshiriq oldidan QR kodlar bilan berilib ketilsa o‘quvchi va o‘qituvchi uchun ham qulay bo‘ladi. Topshiriqlar shakli ko‘p bo‘gan hollarda har bir sinf darsliklari uchun alohida disklarga yozilgan audiolar ishlab chiqish kerak. Biz bolalarga samarali ta’lim berish uchun bиринчи о‘rinda moddiy tomonlama sharoitni to‘liq shakkllantirishga ham e’tibor qaratishimiz kerak. Buning uchun har bir sinfxonani texnik jihatdan to‘liq jihozlash, o‘quvchilar soniga alohida ahamiyat qaratish. O‘quvchilar soni ko‘p bo‘lgan taqdirda ona tili darslarini ham chet tili yoki rus tili fanlari kabi bo‘lib o‘qitish zarur. Shundagina o‘quvchilarning barchasi bilan alohida ishlashga va samarali ta’limga erishish mumkin. Ona tili darsliklarini esa grammatikadan ham voz kechmagan holda tizimlilik asosida nutqiy kompetensiyaning barcha elementlarini mavzularda mujassamlashtirgan holatda qayta ko‘rib chiqilishi zaruratini yzaga keltirmoqda. Agar 5- sinf yangi ona tili darsligida tinglab tushunishga doir topshiriqlar mavjud emas desak, mavzulardagi topshiriqlar qatorida “matnni tinglang” tarzida topshiriq berilganini va o‘qituvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmada esa aynan tinglab tushunish kompetensiyasi va undan ko‘zlangan maqsad haqida ma’lumot kiritilganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun darslikdagi “tinglang” so‘zini “matnni o‘qing” shakliga o‘zgartirish kerak va metodik qo‘llanmadagi tinlab tushunish kompetensiyasi haqidagi tushuncha va maqsad, kutilayotgan natijalar haqida berilgan jumlalarni olib tshlash zarur. Yoki har bitta topshiriq uchun audio variantlarini ishlab chiqish zarur. Shunday ekan, topshiriqlar shakli va tuzilishiga bo‘lgan qarash va yondashuvga alohida e’tibor berish, yangi darsliklar ustida yana ham jiddiyroq ishslash kerakligi va ushbu darsliklar ustida ishlanayotganda tinglab tushunish kompetensiyasi tuzilishi: shakli va mazmuniga alohida e’tibor qaratish lozimligi, topshiriqlar shaklini turli tuman qilish kerakligi darsliklar sifati va qiziqarlilik darajasini yanada oshiradi.

### Foyadalilanigan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarinig 5-sinfi uchun ona tilidan o‘qituvchi kitobi yangi nashr.Toshkent.2020
2. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh va b. Ona tili umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 5- sinfi uchun darslik.Toshkent: 2020

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS  
AND THEIR SOLUTIONS  
**VOLUME 5, ISSUE 1, 2024**

---

3. Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish, Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent: 2020